

**TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA
ERISHILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI**

Abduhakim Abdurahmanov Abdurasulovich

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi Deprtament boshlig'i

Axadov Asror Bahtiyor o'g'li

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi Deprtament bosh mutahassisi

Sharofiddinov Shohrux Ulug'bek o'g'li

O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi Deprtament mutahassisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-kurs magistranti

sharofiddinovshohruh1997@gmail.com

+998 99 713 13 26

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar so`ngi yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuz bergan o'zgarishlar, e'tiborlar to'g'risida, shuningdek to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish va eksport globallashuvi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: To'qimachilik, eksport, import, yalpi ichki mahsulot, yashil energiya, sanoat mahsulotlari , paxta, investitsiya, ip-kalava.

Аннотация: В данной статье авторы размышляют об изменениях и внимания, которые произошли в текстильной и швейно-трикотажной промышленности за последние годы, а также о глобализации производства и экспорта на предприятиях текстильной промышленности

Ключевые слова: Текстиль, экспорт, импорт, валовой внутренний продукт, зеленая энергия, промышленная продукция, хлопок, инвестиции, пряжа.

Abstract: In this article, the authors reflect on the changes and attentions that have taken place in the textile and sewing-knitting industry in recent years, as well as on the globalization of production and export in textile industry enterprises.

Key words: Textiles, export, import, gross domestic product, green energy, industrial products, cotton, investment yarn.

Kirish

To'qimachilik sanoati dunyodagi qadimgi va inson uchun eng muhim tarmoqlardan biridir. Butun dunyo bo'ylab ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan sanoatlardan biridir. To'qimachilik sanoatining qiymati taxminan 1,3 trillion dollarni tashkil etadi va butun dunyo bo'ylab 60 milliondan ortiq odamni ish bilan ta'minlaydi. Kelgusi yillar davomida sanoatning yilik o'sish sur'atlarini 3-4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda ham to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks ko’plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va natijada soha kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi. Shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish va maxsulot raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘srimcha ishlar amalga oshirishni taqozo etmoqda. 2022-2026 yillarda soha mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmlarini keskin oshirish maqsad qilingan. Bunda:

- ip-kalava maxsulotlarini to‘liq qayta ishlash (2026 yilga qadar ip kalavani to‘liq qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish), ishlab chiqarish zanjirida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilayotgan loyihalar shakllantirish;
- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish hajmlarini oshirish hamda ularni ichki va tashqi bozorlarga etkazishni kengaytirish orqali 2023 yilda sohaning eksport salohiyatini 5 mlrd AQSh dollari miqdoriga yetkazish.

Sohaga qayta tiklanuchi energiya manbalarni joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, vazifa ijrosi sifatida sohada yurtimizda ko’plab korxonalar quyosh panellarini o’rnatayotganligini aytishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bo‘yicha ilmiy ish olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning tahlillari hisoblanadi. Tadqiqotda nazariy mushohada, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, mutlaq farq, matematik va statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi


To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy drayver sohalaridan biri bo‘lib, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati Respublikaning YaIMning 8,9 foizini (2022 yil yakuniga ko‘ra) tashkil qilmoqda. Hozirgi kunda sohada 7 mingdan ortiq (shundan: 150 ta ip kalava, 130 ta gazlama, 250 ta trikotaj mato, 5 mingdan ortiq tayyor tikuv-trikotaj va 200 ta paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish) korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Respublikamiz hududida yetishtirilgan paxta xom-ashyosi soha korxonalari tomonidan to‘liq qayta ishlanishi bilan birga qo‘srimcha ravishda 50 ming tonna arlash sun’iy tola qayta ishlanmoqda.

Ishlab chiqarilgan ip kalavanining 47 foizdan ortig‘i mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qayta ishlandi, sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati Strategiyasi” ga asosan 2025 yil

yakuniga qadar ip kalava to‘liq qayta ishlanib, yuqori qo‘shilgan tayyor mahsulotga yetkazish rejalashtirilmoqda.


1-rasm: 2018-2022 yillar mobaynida to’qimachilik sanoatining ishlab chiqarish hajmi



So‘nggi yillarda mamlakatimizda to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar natijasida ishlab chiqarish jadal sur’atlarda o’sib bormoqda. Quyidagi diagramma orqali sanoatni tarkibini ko’rishimiz mumkin.

2-rasm

To’qimachilik va tikuv trikotaj sanoatining tarkibi



- Ip kalava
- Trikotaj mato
- Tikuv-trikotaj mahsulotlari
- Paypoq mahsulotlari
- Ip gazlama


Joriy yil yakuniga qadar soha korxonalari tomonidan umumiy qiymati 79,9 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 118,4 foiz o‘sish sur’atlarini tashkil etdi. Jumladan:

- ip kalava - 905,6 ming tonna o‘sish sur’ati (105 foiz);
- ip gazlama - 814 mln.kv.m (113,7 foiz);
- trikotaj mato – 242,3 ming tonna (118,9 foiz);
- paypoq mahsulotlari – 461,4 mln.juft (100,7 foiz);
- tikuv-trikotaj mahsulotlari – 2 319,7 mln.dona (116,1 foiz) ishlab chiqarildi.

Eksport hajm va miqdor jihatdan sezilarli darajada oshib, Maxsulotlarimiz 70 dan ortiq mamlakatlarga etkazilib umumiy eksport hajmi **3,2** mlrd dollarmi tashkil etdi. Shuningdek, 2022 yil 10 mart kuni **Cotton Campaign** xalqaro koalitsiyasi tomonidan O‘zbekiston paxtasiga e’lon qilingan global boykotni bekor qilindi.

Bu o‘z navbatida Yevropa va AQSh bozorlariga eksportni kengaytitirish, xalqaro brendlarni mahalliy ishlab chiqarishga jalb qilish imkoniyatini yaratdi.

3-rasm




2022 yilda eksport qilingan mahsulotlarning 41,5% (yoki 1 337,4 mln. doll.) tayyor mahsulotlar tashkil etdi (o‘sish o’tgan yilga nisbatan 144 %). Sohada eksportchi korxonalar soni 96 taga oshib, jami 1503 tani tashkil etdi.

Uzoq yillar jahon to‘qimachilik sanoatining asosiy tarmog‘i paxta, undan keyin mo‘yna, zig‘ir va sun’iy tolalarni qayta ishlash bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib jahon gazlama ishlab chiqarishda kimyoviy tolalar salmog‘i sezilarli darajada oshib bormoqda. Hozirda yengil sanoat mahsulotlarining asosiy jahon ishlab chiqaruvchilari

Xitoy va Hindiston kabi davlatlardir. Dunyo paxta ishlab chiqarishining 40 %, kalavaning 64 %, to'qimachilikning 41 %, kiyim-kechakning 50 % Xitoy hissasiga to'g'ri keladi.

To'qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlarini import qiluvchi mamlakalar 4- rasm



O'zbekiston to'qimachilik sanoati mahsulotlarini asasiy xaridorlari MDH mamlakatlari, Turkiya va Xitoy hissiga to'g'ri keladi.

Xitoy va Turkiya davlatlariga ip-kalava eksport yo'lga qo'yilgan bo'lsa MDH mamlakatlari qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti katta ulushlarga ega hisoblanadi.

Eksport ko'lamini kengaytirishda sohaga investitsiya jalb etish muhimdir. Shuning uchun o'tgan yil mobaynida sohaga umumiyligi 771,2 mln. dollarga (shundan 303,7 mln.dollar o'z mablag'lari, 120,2 mln.dollar mln.dollar bank krediti, 347,3 mln.doll. xorijiy investitsiya va kredit) teng 88 ta yirik to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati loyihalari amalga oshirilishi natijasida 23 000 dan ortiq yangi ish o'rirlari tashkil etildi.

Loyihalar ishga tushirilishi natijasida 101,1 ming tonna ip kalava, 15,0 ming tonna trikotaj mato, 119,4 mln.kv.m. ip gazlama, 5,4 mln. juft paypoq, 18,5 ming tonna trikotaj mato bo'yash, 25,0 mln.kv.m. ip gazlama bo'yash va 176,5 mln.dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yangi quvvatlari yaratiladi va 217,9 mln.dollar qo'shimcha ravishda eksport salohiyati yaratiladi.

Xulosa va takliflar

Respublikada keng turdag'i sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi. Shu bilan birga, o'tkazilgan o'rganishlarda mamlakatdagi to'qimachilik sanoatining izchil rivojlanishiga to'siq bo'layotgan qator tizimli muammolar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- energiya resurslari etkazib berilishidagi uzlishlar;
- ishlab chiqarishda zamonaviy asbob uskuna texnologiyalar bilan bir qatorda zamonaviy bilimga ega kadrlar yetishmasligi;
- xalqaro bozorlarni muntazam kuzatib ularning talablaridan kelib chiqqan holda, maxsulotlar assortimentini taklif qiladigan marketing xizmati mavjud emasligi;

Shu bilan birgalikda bir necha takliflarni ilgari surishimiz mumkin. Misol uchun;

- sohaga qayta tiklanuvchi energiya manbalarni keng joriy qilish;
- zamonaviy texnolgiyalar bilan bir qatorda xorijiy mutaxasislarni jalb qilinishini rag`batlantirish;
- zamonaviy marketing xizmatlarini yo`lga qo`yish

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Xalq so'zi. 2022 yil 15 yanvar
2. <https://lex.uz> sayti m'lumotlari
3. <https://www.indexbox.io/blog/World-Textile-Industry-Trends-Technology-and-Forecast/>
4. "Rivojlangan davlatlar milliy iqtisodiyotida yengil sanoat koxonalari holating tahlili"- Xalmatov Turg'unboy Qo'chqarovich maqola
5. "O'zto'qimachilisanoat" uyushmasi hisobotlari